

QUYIMOZOR SUV OMBORI VA UNING ATROFIDAGI EKOLOGIK HOLATNING ATROF-MUHITGA TA'SIRI

Mirzoyeva Istat Elmurodovna

(BuxDU, O'zbekiston)

Asadullaev Anvar Narzullayevich

(BuxDU, O'zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqolada atrof-muhitni tabiiy-antropogen omillar ta'sirida ifloslanishi, jamiyat rivojlangan sari insonning tabiatga ta'sirining ortib borishi, Quyimozor suv ombori atrofi va uning ekologik holati, tabiiy hamda antropogen omillar ta'sirida atrof-muhitning o'zgarishi hamda bu oqibatlarni oldini olishga oid tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Landshaft, antropogen, suv ombor, sayyoraviy, global, biosfera, to'g'on, hovuz, handaq, komponent, ekologik holat, tuproq, antropogen ifloslanish.

DESCRIPTION OF THE KUYIMAZAR RESERVOIR AND ITS SURROUNDING ECOLOGICAL STATE ENVIRONMENT TO

Mirzoyeva Istat Elmurodovna

(BukhDU, Uzbekistan)

Asadullaev Anwar Narzullayevich

(BukhDU, Uzbekistan)

Annotation: this article outlines recommendations for pollution of the environment under the influence of natural-anthropogenic factors, increasing the impact of man on nature with the development of society, Kuyimazar reservoir and its environmental condition, changes in the environment under the influence of natural and anthropogenic factors and their prevention.

Key words: landscape, anthropogenic, reservoir, Planet, global, biosphere, dam, basin, trench, component, ecological state, soil, anthropogenic pollution.

ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ КУИМАЗАРСКОГО ВОДОХРАНИЛИЩА И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ

Мирзоева Истат Элмуродовна

(БухГУ, Узбекистан)

Асадуллаев Анвар Нарзуллаевич

(БухГУ, Узбекистан)

Аннотация: В данной статье даны рекомендации по предупреждению загрязнения окружающей среды природно-антропогенными факторами, с развитием общества, усилено воздействие человека на природу и окружающую среду Куимазарского водохранилища и его экологического состояния.

Ключевые слова: ландшафт, антропогенный, водохранилище, планетарный, глобальный, биосферный, плотина, бассейн, траншея, компонент, экологическое состояние, почва, антропогенное загрязнение.

Atrof-muhitni hozirgi zamon ekologik muhofazasi bosqichi, insonning tabiatga ta'siri umumsayyoraviy masshtabga yetgan. XX asr o'rtalaridan boshlangan bu bosqichning asosiy vazifasi ekologik tizimlarni muhofaza qilish, ularning o'z-o'zini tiklash qobiliyatini ta'minlash va biosferadagi muvozanatni saqlashdir. Bunda tabiatdan oqilona foydalanish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Inson xo'jalik faoliyati bilan bog'liq barcha ifloslanishlarni ba'zan antropogen ifloslanish, deb ataladi. Antropogen ifloslanish tabiat komponentlari buyicha: suvning ifloslanishi, havo yoki tuproqning, yana shuningdek, landshaftlarning ifloslanishi kabi guruhlardan iborat. Antropogen ifloslanish davomiyligiga ko'ra: vaqtinchalik va doimiy; tarqalish ko'lamiga ko'ra: sayyoraviy (global), hududiy (regional) va mahalliy (lokal) guruhlarga ajratiladi.[1]

Kishilik jamiyati va tabiat bir butun hisoblanadi. Jamiyat rivojlangan sari insonning tabiatga ta'siri ortib boradi. Tabiiy omillar bilan antropogen omillar o'zaro uyg'unlashib tabiiy landshaftlarning o'rniga antropogen landshaftlar vujudga keladi. O'zgartirilgan tabiiy muhit, landshaftlarga inson aralashib turmassa, ular o'z tabiiy holatiga qaytishga moyil bo'ladi. Insonning tabiatdan foydalanishi zaruriy ehtiyoj, inson tabiatdan qancha ko'p foydalansa, tabiatda shuncha ko'p o'zgarishlar ro'y beradi.[2]

O‘zbekistonning qurg‘oqchil kontinental iqlimli cho‘l, chala cho‘l va tog‘ oldi dashtlari keng tarqalgan sharoitda suv muammosi hamisha eng jiddiy muammo bo‘lib kelgan. So‘nggi yarim asrda yangi-yangi cho‘l massivlarining dehqonchilik uchun o‘zlashtirilishi, mavjud ekin maydonlarining muttasil kengayishi, yangi-yangi suv omborlari va kanallar qurilishi bilan oqar suvlar tobora taqchilligining vujudga kelishi hamda ifloslanishi ko‘plab jiddiy iqtisodiy-ijtimoiy va geoekologik muammolarni keltirib chiqardi. Xususan, yer osti suvlarini muhofaza qilishda jiddiy muammolar vujudga keldi.

Har bir hudud o‘ziga xos tabiiy xususiyatiga ega. Inson o‘z hayoti davomida tabiatdan foydalanishda mazkur hududning tabiiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ya’ni tabiat bilan uyg‘un yashashga, uning imkoniyatlaridan samarali foydalanishga intiladi. Ana shunday joylardan biri Quyi Zarafshon tabiiy geografik okrugiga tegishli joy – Quyimozor suv ombori. Suv ombori Navoiy viloyati Qiziltepa tumani hududida joylashgan bo‘lib, tuman markazidan 23 km, Buxoro shahridan 32 km uzoqlikda joylashgan. Suv omborida yig‘ilgan suv Buxoro, Kogon, Muborak shaharlarini ichimlik suvi bilan, Buxoro neftni qayta ishslash zovodi, Muborak gazni qayta ishslash zavodilarini texnik suv bilan hamda Buxoro viloyatining Vobkent, Peshku, Romitan, Kogon, Buxoro va Jondor tumanlarining sug‘oriladigan ekin yerlarini sug‘orish uchun sarflanadi.[3]

Quyimozor suv omborining texnik parametlari

1-jadval

1	Suv ombori hajmi	$W=320 \text{ mln.m}^3$
2	foyDALI hajmi	$W=240 \text{ mln.m}^3$
3	o‘lik hajmi	80 mln.m^3
4	qirg‘oq bo‘ylab uzunligi	22 km
5	Suv sathining yuzasi	18 km.kv
6	To‘g‘on uzunligi	172 m
7	To‘g‘on balandligi	24 m
8	Dambaning ustki belgisi (otmetka)	217,63 m

***jadval. Buxoro viloyati Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.**

Quyimozor, Amu-Buxoro kanali kesib o'tgan bo'lib, hududni suv bilan ta'minlaydi. Kanal ta'sirida yerosti suvlarining yer betiga chiqib, katta maydonlarda tuproqning sho'rlanishiga sabab bo'lган. Bu yerda eng katta tarqalgan tuproq tipi sho'rxok va sho'rtob tuproqlaridir. Ularning qatlamlar bo'yicha tabaqalanishi juda kuchsiz ifodalangan. Tuproqlarning qalinligi hudud bo'ylab bir tekisda taqsimlanmagan chunki ularning qalin yoki yupqa bo'lishi bevosita joyning mikrorelyef shakllari bilan chambarchas bog'liq. Quyimozor platosidagi shag'al koni mavjud. Qum-shag'alni qurilish ashyosi sifatida, qasib olish maqsadida Xojkab tepaligi etagida 1966-yildan buyon qum-shag'al zavodi ishlab turibdi. Zavod ixtiyoriga 670 hektarli qum-shag'alli maydon ajratilgan. Qazish ishlari tufayli hozirgi kunda 130 hektar maydonda kon sanoati relyefi hosil bo'lган. Chuqurligi 3-4 metr keladigan ko'lmakli hovuz-xandaklar, tartibsiz yotgan sho'rlangan tuproq uyumlari oy-relyefini eslatadi.(1-rasm) Shunday holatni Quyimozor temir yo'l stansiyasi oldida ko'rish mumkin. Buxoro vohasi chegarasida joylashgan bu texnogen landshaft 20 hektardan ortiq maydonni egallaydi. Yilning issiq va quruq davrida bunday maydonlar deflyatsiya o'chog'i bo'libgina qolmasdan, qon so'ruvchi hasharotlarning ko'payish maskani hamdir. Bunday yerlarni agrotexnik va biologik rekultivatsiya qilish kechiktirib bo'lmaydigan vazifadir.



1-rasm.Quyimozor suv ombori va uning ta'siridagi botqoqli-sho'rtoblar

Ayrim pastqam joylarda taqir, sho'rtob va sho'rxok tuproqlar ham uchraydi. Barcha tuproq tiplari nihoyatda chirindiga kambag‘al.Sho‘rxok landshaftlardan samarali foydalanish maqsadida Quyimozor kanali bo‘yida, ayniqsa, Xojkab sho‘rxokligida tuz, balchiq sanatoriyasini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, bu shahar aholisiga nisbatan qulay masofada joylashgan. Ikkinchidan, tuz-balchiq terapiya xalqqa ma'lum bo‘lgan an'anaviy davolash usullaridan biri bo‘lib, juda foydali hisoblanadi.

Xulosa qilib, shuni ta’kidlash kerakki, fan-texnika inqilobi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni yaxshilash bo‘yicha insoniyat uchun juda katta imkoniyat tug‘dirdi. Biroq, ayni vaqtida u ko‘pincha tabiiy muhitning ancha ifloslanishiga va tabiiy sharoitning yomonlashuviga ham olib keldi. Atrof-muhitning ifloslanishi bu tabiatga zararli moddalar va birikmalarning chiqarib tashlanishidan iborat bo‘lib, bu hodisa havo, tuproq-grunt va suvning fizik, kimyo va biologik xususiyatlarining ko‘ngilsiz o‘zgarishlariga olib keladi. Bu hol tabiiyki, kelajakda o‘simliklar, hayvonlar va odam hayotiga, sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga, tabiiy resurslarning holatiga tobora ko‘proq salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Kelgusida Quyimozor suv omborlari va ularga yondosh bo‘lgan landshaftlarning tabiiy resurslaridan samarali foydalanish, ularni asrab - avaylash uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish joiz:

- Quyimozor – To‘dako‘l suv omborlariga yondosh yerlarda mavjud bo‘lgan yalang, tashlandiq chag‘il konlarining ayrim qismlari hozirgi davrda chiqindi – axlatxonalarga aylantirilgan.Bu yerlarni rekultivatsiya, ya’ni fitomelioratsiya qilish zarur.Buning uchun qora saksovul, shuvoq, ili astragili kabi gipofitlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

- Asosan ichimlik suv manbai sifatida foydalanib kelinayotgan Quyimozor suv omborini muhofaza qilish choralarini takomillashtirish zarur.

Shunday qilib, hozirgi vaqtida tabiatni ifloslanishdan muhofaza qilish undan oqilona foydalanishni tashkil qilish eng muhim va dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Rafiqov A.A., Sharipov Sh.M. Geoekologiya (O‘quv qo‘llanma). Toshkent, 2014, -101 b.
2. Тўхтаев А.С. Экология. –Т.: “Ўқитувчи”, 1998. -Б. 155-160.
3. Ҳикматов Ф.Х., Сирлибоева З.С., Айтбаев Д.П. Кўллар ва сув омборлар географияси, гидрологик хусусиятлари.-Т. “Университет”, 2000.